

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI



«TASDIQLANDI»

Namangan davlat pedagogika instituti

rektor V. B. M. R. Odirxonov

2023-yil

60111900– Maktabgacha va boshlang'ich jismoniy tarbiya va sport ta'limi
ixtisosligidan 2023/2024-o'quv yili uchun ikkinchi va undan keyingi o'ly
ma'lumot olish bo'yicha imtihon
DASTURI VA BAHOLASH MEZONI

NAMANGAN – 2023

ANNOTATSIYA

Ushbu dastur Maktabgacha va boshlang'ich jismoniy tarbiya va sport mutaxassisining kasb tayyorgarligiga oid nazariy va amaliy materiallarini o'zida mujassamlashtirgan bo'lib maktabgacha ta'lim sohasidagi metodik muammolarni pedagogik-psixologik bilimlar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va axborot texnologiyalarini ta'lim va tarbiya jarayoniga tatbiq etish asosida hal etish, maktabgacha ta'lim tashkiloti mutaxassislarini maktabgacha yoshdagi bolalarda ma'naviy, jismoniy, aqliy – ahloqiy, iqtisodiy, huquqiy, ekologik ta'limini amalga oshirishga doir nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish, bo'lajak mutaxassislarni umumkasbiy ko'nikma va malakalarini shakllantirish masalalarini yoritadi.

60111900– Maktabgacha va boshlang'ich jismoniy tarbiya va sport ta'limi yo'nalishi bo'yicha ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumot olish bo'yicha kiruvchilarning bilim darajasini sinash maqsadida tuzilgan savollar maktabgacha ta'limga oid nazariy asoslarini o'z ichiga oladi.

Mazkur savollar O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standartiga asoslangan xolda, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" gi Qonun talablariga mos ravishda, amaldagi na'munaviy dasturlar asosida tuzildi.

Tuzuvchilar: dotsent, PhD M.Asranbayeva
dotsent F.Asqarov

Taqrizchi: dotsent B.Boyboboyev

Dastur NamDPI Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida 2023 yil 24 iyundagi 11-sonli yig'ilishida muhokama qilingan va ma'qullangan.

KIRISH

Ushbu dastur 60111900– Maktabgacha va boshlang'ich jismoniy tarbiya va sport ta'lim yo'nalishi bo'yicha ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumot olish bo'yicha kiruvchilar uchun mo'ljallangan bo'lib, Davlat ta'lim standartlari talablari asosida tuzilgan.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasida aholining, ayniqsa yosh avlodning salomatligini saqlash, jismoniy madaniyat va sportni rivojlantirish masalalariga katta e'tibor berib kelinmoqda.

Mamlakatimizda mazkur soha rivojiga qaratilgan qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan va jadallikda hayotga tatbiq etib kelinmoqda. Jumladan O'zbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»gi, «Ta'lim to'g'risida»gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 24 oktyabrda qabul qilingan «O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasini tuzish to'g'risida»gi farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 27 maydagi 271-sonli «O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 iyundagi PQ-3031-sonli "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori shular jumlasidandir.

Asosiy qism:

Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarga maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy tarbiya asoslarining chuqur nazariy anglanishini ta'minlash, maktabgacha ta'limda jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati bo'yicha pedagogning kasbiy faoliyatidagi asosiy nazariy-usuliy qoidalarini amalga oshirish malakasini shakllantirishdan iborat.

Fanning vazifasi: maktabgacha ta'limda jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati faoliyatining nazariy qoidalarini o'rganish, jismoniy tarbiya uslubiyatining asosiy tushunchalarini o'rganish, jismoniy tarbiya va sportning vosita va usullarini o'zlashtirish; jismoniy tarbiyaning tashkiliy shakllarini o'rganish; tayyorgarlik fanlari tizimida jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat nazariyasi hamda uslubiyatining integratsiyalovchi roli to'g'risida tasavvur hosil qilish; amalda harakat faoliyatlarini o'rganish, jismoniy sifatlarni rivojlantirish, bilimlarni shakllantirish nazariyasi va uslubiyatini qo'llashga o'rgatish.

Bakalavr:

O'zbekistonda gimnastikani rivojlanish tarixi (gimnastikani kelib chiqish tarixi, referat)

Gimnastika mashqlarining atamallari (rasm chizish, og'zaki o'tkazish)

Saf mashqlarini vazifalari, guruhlari, buyrug'lariga tavsif berish

Umumrivojlantiruvchi mashqlar yordamida hal qilinadigan asosiy vazifalar (referat).

Umumrivojlantiruvchi mashqlar o'rgatish uslublari.

Umumrivojlantiruvchi mashqlar majmuasini tuzish

Sog'lomlashtiruvchi gimnastika mashg'ulotlarining shakllari

Sog'lomlashtiruvchi gimnastika mashqlar majmuasini tuzish

Ertalabki badan-tarbiya mashqlari majmuasini tuzish

Fizkultura daqiqa majmuasini tuzish

Gimnastikada asosiy jismoniy sifatlarni (egiluvchanlik, kuch, tezkorlik va koordinatsion qobiliyatlar) rivojlantirish usullari

Gigienik gimnastika mashg'ulotlarining mohiyati, ta'siri

Gimnastika mashqlarini o'rgatish bosqichlari

O'rgatishning didaktik prinsiplari

O'rgatish uslublari to'g'risida tushuncha

Mashq o'rgatishning usullarini yoritib berish

Maktabgacha ta'lim muassasalarida gimnastika mashg'ulotini konspektini tuzish.

Boshlang'ich ta'limda (1-4-sinflar) o'rgatishni izohlab berish

Darsni asosiy qismi uchun mashqlarni tanlashni tushuntirib berish.

Amaliy mashqlarning asosiy vositalari nimaga asoslanganini tushuntirib berish

Gimnastikaning amaliy turlarini tasniflab beri

Amaliy mashqlar yordamida qanday harakat sifatlar rivojlanadi.

Asosiy qism

1-mavzu. Maktabgacha ta'limining jismoniy tarbiya dasturiga tavsif.

Ta'lim tizimida jismoniy tarbiya dastur tushunchasi. Bolalarni jismoniy madaniyatli tarbiyalashda mashg'ulot vazifalari. Jismoniy tarbiya dasturining ("Ilk qadam") maqsadi, vazifalari va uslublari. Jismoniy-sog'lomlashtirish dasturining maqsadi. Jismoniy-sog'lomlashtirish dasturining xususiyati. Respublikada dasturning qo'llash usullari.

2-mavzu. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodologiyasida tadqiqot usullari.

Adabiyot, materialni tahlil qilishda muallifi yoki muharriri, maqola, risola, sarlavha, nashriyot, nashr etilgan yili, jild, nashr, nashr raqami, sahifalar soni ko'rsatilishi kerak. Ish natijalari tadqiqotchini qiziqtirgan asosiy ilmiy

pozitsiyalarni belgilab beradigan tematik sharhlar shaklida tuziladi. Pedagogik kuzatish maktabgacha ta'lim muassasasida pedagogik jarayonni yo'naltirilgan idrok etish va o'rnatishni o'z ichiga oladi. Bu aniq belgilangan maqsadga ega bo'lishi kerak. Kuzatuvdan oldin kelajakda olingan ma'lumotlarni to'g'ri talqin qilishga yordam beradigan dastur tuziladi. So'rovnoma - bu empirik tadqiqot usuli bo'lib, respondentlarning anchagina so'roviga asoslanib, ma'lum psixologik va pedagogik hodisalarning o'ziga xos xususiyati to'g'risida ma'lumot olish uchun ishlatiladi. O'rganish jarayonida olingan materiallar arifmetik o'rtacha qiymatlarni aniqlash usullari bilan matematik-statistik ishlov berishdan o'tkaziladi.

3-mavzu. Bolalar organizmini rivojlanishida yosh xususiyatlari Yoshga oid bola organizmida turli o'zgarishlar.

Bolaning skelet-muskullarini yoshga nisbatan shallanishi. Bola yurak qon-tomir tizimi. Nafas olish tizimi. Asab tizimi. Bola organizmining jismoniy holati

4-mavzu. Harakat qobiliyatlarini rivojlantirish Harakat qobiliyati haqida asosiy tushuncha. (4 soat)

Bolada dastlabki harakat qobiliyatini shakllanishi. Umumiy va maxsus qobiliyatlar. Harakat qobiliyati. 7 Tezkorlik sifati. Tezkor-kuch sifatini rivojlantirish uslublari. Chidamlilik sifatini rivojlantirish uslublari. Chaqqonlik sifatini rivojlantirish uslublari. Egiluvchanlik sifatini rivojlantirish uslublari.

5-mavzu. Harakat faoliyatini shakllantirishning qonuniyatlari.

Harakatlarga o'rgatish jarayonining asoslari. Ko'nikma va malakani shakllantirish ta'lim jarayoni sifatida. Tushuncha va terminlar. Harakatni bajara olish. Harakat faoliyatini shakllantirish tizimi. Harakat malakasi dasturining shakllanishi. Harakat malakalarida dinamik stereotipning yuzaga kelishi. Harakat malakasining shakllanishida ekstrapolyatsiyaning o'rni. Harakat malakalarining shakllanish fazalari. Malakaning ko'chishi. Malakaning ijobiy va salbiy ko'chishi. Harakatni oliy tartibda bajara olish. Harakatlarga o'rgatish jarayoni bosqichlarining xususiyatlari va tuzilishi. Harakat faoliyatiga o'rgatish jarayoniga tavsif. Dastlabki o'rganish. Chuqurroq o'rganish. Harakatlarni bajarish malakasini mustahkamlash va yanada takomillashtirish. O'rgatish jarayonlarining vazifalari. O'rgatish jarayonlarining uslub va tamoyillar bilan o'zaro aloqasi.

6-mavzu. Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy mashqlarga o'rgatish. (4 soat)

Jismoniy mashqlar to'g'risida umumiy tushuncha. Asosiy harakatlarga (yurish, yugurish va sakrash) o'rgatish. Jismoniy mashqlarga o'rgatish. Umumrivojlantiruvchi mashqlarga o'rgatish. Saf mashqlariga o'rgatish. Yoshga doir mashqlarni qo'llash.

7-mavzu. Jismoniy tarbiya darsi mashg'ulotlarning asosiy shakli sifatida, uning tuzilishi

Ma'ruzani talabalarga yoritib berishda jismoniy tarbiya darsi olib boriladigan mashg'ulotlar orasida asosiysi ekanligini. Maktab o'quvchilarning jismoniy tarbiyasining vazifalari, mashg'ulotlarning asosiy shakllari va ularning tuzulishi. Jismoniy tarbiyaning vositalari, darsni tashkil qilish usullarini o'rgatish. Maktablarda jismoniy tarbiya darslarning tuzilishi va o'tkazish uslubiyatini talabalarga yoritib berish zarur.

8-mavzu. Jismoniy tarbiya darslarida o'quvchilar faoliyatini tashkil etish shakllari

Ma'ruzani yoritib berishda jismoniy tarbiya darslarida o'quvchilar faoliyatini tashkil etish va boshqarish, yuklamalarni me'yorlash qoidalari; O'quv yilida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini rejalashtirishni o'rgatish; Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil etish usullarini misollar bilan tushuntirish lozim bo'ladi

9-mavzu. Sinf dan va maktabdan tashqari olib boriladigan jismoniy tarbiya tizimi

Ma'ruza davomida "Dars, darsdan tashqari shakllar" to'g'risida ko'rsatma berish umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiyaning darsdan va sinfdan tashqari shakllari. Mashg'ulotga kirish, gimnastika, harakatli daqiqalar (fizkultminutka), katta tanafusdagi o'yinlar, kuni uzaytirilgan guruhlarda jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish asoslarini o'rgatish kerak.

10-mavzu. Jismoniy tarbiya bo'yicha maktab dasturi va asosiy rejalashtirish hujjatlarining tavsifi

Ma'ruza davomida ko'proq davlat xujjatlariga, dastur bo'limlariga talabalarning e'tiborini qaratish, jismoniy tarbiya darslarida o'quvchilar faoliyatini tashkil etish va boshqarish, yuklamalarni me'yorlash qoidalari. O'quv yilida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini rejalashtirishni o'rgatish kerak bo'ladi. O'quv vaqtlari va dastur bo'limlarini choraklarga taqsimlash yillik jadvali. Yillik ish rejasi. O'quv materiallarini chorak soatlariga taqsimlash yillik jadvali. Chorak uchun ish rejalarini tushuntirish kerak bo'ladi. Dastur bo'limlarini choraklarga taqsimlash yillik jadvalini doska yordamida tushuntirish, dastur bo'limlariga alohida tavsif berish lozim.

11-mavzu. Maktab jismoniy tarbiya kursining yillik reja-grafigini ishlab chiqish texnologiyasi asoslari

Ma'ruza davomida o'quv vaqtlari va dastur bo'limlarini choraklarga taqsimlash yillik jadvali. Yillik ish rejasi. O'quv materiallarini chorak soatlariga taqsimlash yillik jadvali. Chorak uchun ish rejalarini tushuntirish kerak bo'ladi. Dastur bo'limlarini choraklarga 9 taqsimlash yillik jadvalini doska yordamida tushuntirish, dastur bo'limlariga alohida tavsif berish lozim.

12-mavzu. Har bir darsning ishchi rejasini tuzish uslubiyati

Ma'ruza davomida yil davomida va har-bitta chorak uchun dars oldiga vazifalar qo'yib, ish rejasini tuzish texnologiyasini tushuntirish bilan birga xar-bir sinf uchun dars mashg'ulotlarini olib borishni tavsiya etiladi.

13-mavzu. Jismoniy tarbiya bo'yicha dars konspektini tuzish uslubiyati

Ma'ruza davomida ko'proq dars konspektining to'g'ri yozilishigava uning mazmuniga, dars oldiga qo'yiladigan vazifalarni aniq qo'yishga talabalarning e'tiborini qaratishi lozim.

14-mavzu. Jismoniy tarbiya darslarida pulsometriya olib borish uslubiyati

Ma'ruza davomida pulsometriya (jismoniy yuklamalarning organizmga ta'sirini aniqlash)ning qo'llanilishi, o'qituvchining tarbiyaviy ishlari, o'quvchilarning xulqi, darsni umumlashtirish haqida ma'lumotlar berish zarur

15-Mavzu: Kuch qobiliyatini tarbiyalash

Kuch qobiliyatlarining rivojlanish darajasini va namoyon bo'lishini belgilovchi omillar, kuch qobiliyatlarini rivojlantirish vositalari, kuch qobiliyatlarini rivojlantirish usullari. Kuch qobiliyatlarining turlari va ularni rivojlantirish usullari.

16-Mavzu: Tezkorlik qobiliyatini tarbiyalash

Tezlik qobiliyati haqida tushuncha. Tezkorlik harakatini sezish rivojlanishining uslubiyati. Yakka harakat tezligi va harakat chastotasining rivojlanish uslubiyati. Tezlik qobiliyatlarining paydo bo'lishida majmuaviy shakllarning rivojlanish uslubiyati.

17-Mavzu: Chidamlilikni tarbiyalash

Chidamlilik tushunchasi. Chidamlilik turlari. Chidamlilikni rivojlantirish uslubiyati. Chidamlilik kuchini rivojlantirish.

3-Mavzu: Egiluvchanlik va gavdani to'g'ri o'stirishning xususiyatlari

Egiluvchanlik haqida tushuncha. Egiluvchanlikning turlari va o'lchov mezonlari. Egiluvchanlikning rivojlanish darajasini aniqlovchi omillar. Egiluvchanlikni rivojlantirish uslubiyatining vazifalari va vositalari. Egiluvchanlikni rivojlantirish uchun mashqlarning taxminiy me'yori

60111900- Maktabgacha va boshlang'ich jismoniy tarbiya va sport ta'lim yo'nalishidan ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumot olish bo'yicha katuruvchilarning bilim darajasini sinash maqsadida tuzilgan savollar

1. G. Pestalosiyning yosh bolalar uchun maktabi.
2. K. D. Uchunskiy maktabgacha tarbiya to'g'risidagi qarashlari.
3. Y. A. Komenskiyning onalar maktabi haqidagi ta'limoti.
4. Maktabgacha ta'limda jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati fanining predmeti. Maqsad va vazifalari. Asosiy tushunchalari
5. Maktabgacha ta'limda jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati fanining rivojlanish tarixi hamda boshqa tarbiya turlari bilan aloqadorligi

6. Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasining vositalari
7. Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyaning maqsadi, vazifalari va umumiy hamda uslubiy tamoyillarga tavsif
8. Bolalar jismoniy tarbiyasining uslublariga tavsif.
9. Bolani shaxs bo'lib shakllanishida jismoniy tarbiyaning o'rni
10. Jismoniy tarbiya vositalari orqali maktabgacha yoshdagi bola shaxsini rivojlanish muammolari
11. Maktabgacha ta'limining jismoniy tarbiya dasturiga tavsif
12. Maktabgacha ta'limdagi jismoniy tarbiya majmuaviy dasturining mazmuni
13. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodologiyasida tadqiqot usullari.
14. Bolalar organizmini rivojlanishida yosh xususiyatlari
15. Bolalar jismoniy tarbiya nazariyasi va texnologiyalari fanining umumiy masalalari.
16. Bolalar jismoniy tarbiya nazariyasi va texnologiyalari fanining Jismoniy tarbiya metodikasining metodologik, ilmiy-nazariy, 'sixologo-pedagogik asoslari.
17. Bolalar jismoniy tarbiya nazariyasi va texnologiyalari fanining rivojlanish tizimi
18. Sharq mutafakkirlarining jismoniy tarbiya haqidagi qarashlari.
19. Xorijiy davlatlarda bolalarga jismoniy tarbiya berish tizimining rivojlanishi.
20. O'zbekistonda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga jismoniy tarbiya berish tizimining rivojlanishi
21. Jismoniy tarbiya vazifalari va vositalari.
22. Tug'ilgandan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarning rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.
23. Jismoniy mashqlarning xarakteristikasi. Jismoniy mashqlarning paydo bo'lishi.
24. Ilk va maktabgacha bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari va davlat dasturida jismoniy tarbiya masalalarining yoritilishi.
25. Maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish
26. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar uchun gimnastika.
27. Maktabgacha yoshdagi bolalarni asosiy harakatlarga o'rgatish metodikasi.
28. Umumrivojlantiruvchi mashqlar va ularning guruhlari
29. Harakatli o'yinlar jismoniy madaniyatni tarbiyalashning asosiy metodi va vositasi sifatida.
30. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun sport mashqlari. Sport mashqlariga o'rgatish metodikasi.
31. Maktabgacha ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiyani tashkil etish shakllari.
32. Bolalarni kundalik hayotida jismoniy tarbiya boyicha ishni tashkil etish.

33. Jismoniy tarbiya boyicha yo'riqchining ish faoliyati.
34. Maktabgacha ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya bo'yicha ishni rejalashtirish.
35. Tananing alohida qismlari uchun mashqlar tanlash.
36. Jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun mashq majmualarini tuzish.
37. Ruhiy xususiyatlarni rivojlantirish uchun umumrivojlantiruvchi mashqlar.
38. Organizm tizimlarining funktsional darajasini yaxshilashga yo'naltirilgan umumrivojlantiruvchi mashqlar.

60111900– Maktabgacha va boshlang'ich jismoniy tarbiya va sport ta'lim yo'nalishidan ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumot olish bo'yicha kiruvchi talabgorlar uchun mutaxassislik fanidan davog'lar bilimni baholash

MEZONLARI:

Mazkur yo'nalish bo'yicha kirish sinovi mavjud o'quv dasturlari asosida tuzilgan savollar asosida amalga oshiriladi.

Har bir variantda 3 ta savol mavjud bo'lib, birinchi va ikkinchi savol uchun esa maksimal **30 ball**, uchinchi savol uchun maksimal **40 ball** belgilangan.

Variantdagi **birinchi va ikkinchi savolga** berilgan javoblarning mazmuniga qarab, ularga quyidagicha miqdorda ballar belgilanadi:

1. Mazkur savolning mazmuni aniq, to'liq va mantiqan to'g'ri yoritib berilsa. Bundan tashqari, javob hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti bilan bog'liq xolda, yoritilsa, 26 – 30 balgacha qo'yiladi.

2. Mazkur savolning mazmuni to'liq, yaxshi yoritilsa va hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalangan, mavzular asoslangan, ammo ayrim noaniqliklar va chalkashliklarga yo'l qo'yilsa, 21 – 25 balgacha qo'yiladi.

3. Mazkur savolning mazmuni o'rtacha yoritilsa, javob to'g'ri berilsa, mavzular asoslansa, ammo ayrim noaniqliklar va chalkashliklarga yo'l qo'yilsa, 16-20 balgacha qo'yiladi.

4. Mazkur savolning mazmuni talab darajasida yoritilmasa va hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalanilmasa, savol bo'yicha aniq tasavvurga ega bo'lmasa, umuman javob berilmasa yoki noto'g'ri javob va ma'lumot berilsa, 0-15 balgacha qo'yiladi.

Variantdagi **uchinchi savolga** berilgan javoblarning mazmuniga qarab, ularga quyidagicha miqdorda ballar belgilanadi:

1. Mazkur savolning mazmuni aniq, to'liq va mantiqan to'g'ri yoritib berilsa. Bundan tashqari, javob hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti bilan bog'liq xolda, yoritilsa, 35 – 40 balgacha qo'yiladi.

2. Mazkur savolning mazmuni to'liq, yaxshi yoritilsa va hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalangan, mavzular asoslangan, ammo ayrim noaniqliklar va chalkashliklarga yo'l qo'yilsa, 28 – 34 balgacha qo'yiladi.

3. Mazkur savolning mazmuni o'rtacha yoritilsa, javob to'g'ri berilsa, mavzular asoslansa, ammo ayrim noaniqliklar va chalkashliklarga yo'l qo'yilsa, 22-27 balgacha qo'yiladi.

4. Mazkur savolning mazmuni talab darajasida yoritilmasa va hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalanilmasa, savol bo'yicha aniq tasavvurga ega bo'lmasa, umuman javob berilmasa yoki noto'g'ri javob va ma'lumot berilsa, 0-21 balgacha qo'yiladi.

60111900 – Maktabgacha va boshlang'ich jismoniy tarbiya va sport ta'lim yo'nalishi dan ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumot olish bo'yicha kiruvchi talabgorlar bilimini aniqlash maqsadida tuzilgan baholash mezonini Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida 2023 yil 24 iyundagi 11-sonli yig'ilishida muhokama qilinib, ma'qullangan.

Asosiy adabiyotlar

- 1.X.X., Boltaboyev. Sport va harakatli o'yinlar va uni o'qitish metodikasi. Darslik. T.: 2021 y
2. B.X.Usmanov "Gimnastika darslarida innovatsion texnologiyalar"// O'quv qo'llanma Cho'lpon nashriyoti T.: 2013y
- 3.R.R.Dadaboyev. "Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi" //O'quv qo'llanma T.: 2022y
4. M.S. Mullabayeva "Sport va harakatli o'yinlar va uni o'qitish metodikasi". // O'quv qo'llanma T.: 2022y
5. Morgunova. I.I. Gimnastika va uni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma – Toshkent, Ilm-ziyo-2011 y
6. Сушко Г.К. Гимнастика и методика её преподавания. Учебное пособие T.: ILM-ZIYO.-2012 г.
7. F.A.Asqarov "Bolalar jismoniy tarbiya nazariyasi va texnologiyalari". Uslubiy qo'llanma T.: 2022y
8. F.A.Asqarov "Bolalar jismoniy tarbiya tarbiyasi". // O'quv qo'llanma T.: 2022y

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. T.: "O'zbekiston", 2016. – 32 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahliliy qa'tiy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik, har bir rahbarning kundalik qoidasi bo'lishi kerak.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: "O'zbekiston", 2017. – 485 b.
4. Salomov R.S. Jismoniy madaniyat nazariyasiga kirish. O'quv qo'llanma. T.,-1991.
5. Usmanxodjaev T.S. Yugur, sakra, emakla, uloqtir. T.- 2018y. 140 b.
6. Oliy pedagogika o'quv yurtlarining o'quv jarayoniga pedagogik texnologiyalarni tatbiq etishning ilmiy asoslari. Respublika ilmiy-uslubiy konferentsiyasi materiallari. T., TDPU, 2000.
7. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi, Nasaf, 2000.
8. Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar (nazariya va amaliyot). T., Moliya nashriyoti, 2003.
9. Tolipov O'.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. Monografiya. T., Fan, 2005.

AXBOROT MANBAALARI

10. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.
11. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

4. Mazkur savolning mazmuni talab darajasida yoritilmasa va hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalanilmasa, savol bo'yicha aniq tasavvurga ega bo'lmasa, umuman javob berilmasa yoki noto'g'ri javob va ma'lumot berilsa, 0-21 balgacha qo'yiladi.

60111900 – Maktabgacha va boshlang'ich jismoniy tarbiya va sport ta'lim yo'nalishi dan ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumot olish bo'yicha kiruvchi talabgorlar bilimini aniqlash maqsadida tuzilgan baholash mezoni Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida 2023 yil 24 iyundagi 11-sonli yig'ilishida muhokama qilinib, ma'qullangan.

Asosiy adabiyotlar

- 1.X.X., Boltaboyev. Sport va harakatli o'yinlar va uni o'qitish metodikasi. Darslik. T.: 2021 y
2. B.X.Usmanov "Gimnastika darslarida innovatsion texnologiyalar"// O'quv qo'llanma Cho'lpon nashriyoti T.: 2013y
- 3.R.R.Dadaboyev. "Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi" //O'quv qo'llanma T.: 2022y
4. M.S. Mullabayeva "Sport va harakatli o'yinlar va uni o'qitish metodikasi". // O'quv qo'llanma T.: 2022y
5. Morgunova. I.I. Gimnastika va uni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma – Toshkent, Ilm-ziyo-2011 y
6. Сушко Г.К. Гимнастика и методика её преподавания. Учебное пособие Т.: ИLM-ZIYO.-2012 г.
7. F.A.Asqarov "Bolalar jismoniy tarbiya nazariyasi va texnologiyalari". Uslubiy qo'llanma T.: 2022y
8. F.A.Asqarov "Bolalar jismoniy tarbiya tarbiyasi". // O'quv qo'llanma T.: 2022y

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. T.: "O'zbekiston", 2016. – 32 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahliliy qa'tiy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik, har bir rahbarning kundalik qoidasi bo'lishi kerak.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: "O'zbekiston", 2017. – 485 b.
4. Salomov R.S. Jismoniy madaniyat nazariyasiga kirish. O'quv qo'llanma. T.,-1991.
5. Usmanxodjaev T.S. Yugur, sakra, emakla, uloqtir. T.- 2018y. 140 b.
6. Oliy pedagogika o'quv yurtlarining o'quv jarayoniga pedagogik texnologiyalarni tatbiq etishning ilmiy asoslari. Respublika ilmiy-uslubiy konferentsiyasi materiallari. T., TDPU, 2000.
7. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi, Nasaf, 2000.
8. Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar (nazariya va amaliyot). T., Moliya nashriyoti, 2003.
9. Tolipov O'.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. Monografiya. T., Fan, 2005.

AXBOROT MANBAALARI

10. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.
11. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.